

ADIB YODI BILAN

Xamroyeva KomilaToshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Well-known uzbek writer. We are very familiar with the work of the famous Uzbek writer Gafur Ghulam. The author's works have a great place because of their vitality and the fact that they are written based on his own life. Especially as we mentioned in the article, the life and work of our writer went through such difficult times and caused the birth of such works.

Kirish so'zlar: G'afur G'ulom, she'r, doston, ocherk

Otashnafas kuychi G'afur G'ulom hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining yuksalishida muhim o'rin egallaydi. Adibimizning asarlarini, she'rlarini o'qigan kitobxonlar qalbida ayni o'sha davr muhiti qayta jonlanadi. Bilasizmi, nega biz bu davr XX asr haqida gapiryapmiz, sababi adibimizning o'zi ham ushbu davr qurbanbi bo'lgan, undagi qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan, hayot haqiqatlarini juda erta anglagan va oiladek katta bir dargohga yosh bo'lsada, bosh bo'lishiga sabab bo'lgan. G'afur G'ulomning urushdan keyingi ijodi o'zbek adabiyoti rivojida beqiyos o'rinnegi egallagan. G'afur G'ulomning bu davr ijodida bolalarning o'ziga xos orzu-umidlari, yuksak ma'naviy olamlari, odob va axloqlari, o'qish va intilishlari asosiy mavzuga aylandi. Xalqimiz orasida, ota-onasi yoki ulardan biri o'lgan bolani yetim deb atashga o'rganib qolganmiz. Shuningdek, ularning keyingi hayotlariga mas'ul sifatida, bolaning yaqinlari, qarindoshlari ularni o'z qaramog'iga olganlar. "Yodgor" qissasida aytilganidek, "Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'glon asrasang og'zi-burning qon etar", degan jumlalar mavjud. Buni biz huquqiy jihatdan talqin qiladigan bo'lsak, ushbu harakatlar hech qanday huquq normasiga to'g'ri kelmaydi. Sababi, biz ushbu holatni axloq normasi sifatida e'tirof etishimiz lozim. Sababi biz bilamiz, huquq normasi-barcha aholi uchun majburiy ahamiyatga ega va shu harakatni bajarmaslik oqibatida javobgarlik holatlari kelib chiqadi. Vaholanki, axloq normasi esa-jamiyat qoidalari asosida vujudga keladi va bu harakatlar uchun javobgarlik holatlari mavjud emas. Adibimiz ham ko'p holatlarda axloq normasi orqali asarlarida huquqni yanada kengroq tushuntirishga harakat qiladilar. Fikrimizning yorqin dalili sifatida adibning quyidagi ijod mahsullariga to'xtalib o'tmoqchimiz:

G'afur G'ulomning "Netay", "Yodgor", "Shum bola" qissalarida yuqorida muhokama qilib o'tgan mavzuyimiz yetimlik muammosi tahlil qilinadi va adib tomonidan shu davrdagi og'ir vaziyatlar yozuvchi tomonidan achchiq kulgu ostida ochib tashlanadi. "Shum bola" qissasi ijodkorga ulkan yutuqlar olib keldi desak,

mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu asarda otasidan yetim qolgan Qoravoyning boshdan kechirgan sarguzashtlari bayon etilgan. Asardagi quyidagi holat yetimlikning eng achinarli holatlaridan biri deb atasak yanglishmagan bo'lamiz, bilamiz, Qoravoy ko'p boylarga xizmatda bo'ldi, kaltaklandi, xo'rlandi, xaromi deya tilga olindi, mehnatiga yarasha haq olmadi vaholanki, shunga qaramasdan asar qahramoni asar oxirigacha do'stlariga duch kelganda, ularga Qoravoyni ko'rmaganliklarini va bu haqida hech kimga aytmaslik bilan bir qatorda, o'ziga-o'zi quyidagi fikrlarni aytadi, "Men hali ko'p pul ishlab topganim yo'q, ishlay, ko'proq pul topay, uyga bozorlik qilib boraman", deydi. Vaholanki, bir o'ylab ko'ring asar qahramoni hali juda yosh bo'lsada, oila dardi haqida o'ylaydi, bolalik gashtidan qisman bo'lsada, mahrum bo'ladi. Eng achinarli holati bilim olishdan, o'z tengqurlari kabi oila davrasida birga bo'lishdek baxtdan mahrum etiladi, shu sababli u ishlab, mehnat qilishga majbur bo'ladi. "Shum bola" asari haqida U. Normatov ushbu asarni sho'ro davrida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan davr siyosati va mafkurasidan batamom xoli bo'lgan o'zbek turmush tarzini, turli qatlamlarini haqqoniy yoritib bera olgan asar sifatida baholagan. Ushbu holatni ayni hozirgi davr bilan bog'laydigan bo'lsak, yurtimizda yoshlarning bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratilgan holda, yolg'iz boquvchili oilalarga, voyaga yetmaganlar haqida maxsus huquq normalari o'rnatilgan va ularning huquqlari doimo himoya qilinadi. "Yodgor" qissasi G'afur G'ulom tomonidan 1936-yilda yozilgan bo'lib, asar bir shaxs tomonidan hikoya qilinadi. Bir tomondan qarasak, qissa hukumatga yoqish uchun yozilgan. Biz bu fikrlarni Qizil qo'shinni maqtashlardan, ushbu hukumatga xizmat qilishlikni olg'a surish fikrlaridan ko'rishimiz mumkin. Boshqa tomondan qarasak, ilmga e'tibor qaratilgan. Jo'raning o'qishi, ilmga bo'lgan intilishi har narsadan muhim turishi haqidagi fikrlarning ilgari surilishini ko'rib, anglab yetishimiz mumkin. Yodgor masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, yosh bir go'dakning onasi Mehri tomonidan Jo'raka nisbatan yolg'on qo'llab, farzandini tanimagan-bilmagan insonning qo'liga tashlab ketishi, Jo'raning "aybsiz aybdorga" chiqishi, Mehrining esa qayta farzandli bo'la olmasligi kabi hayot haqiqatlari bayon qilingan qissadir.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'iddir umr daftarin.
(«Vaqt» she'ridan)

G'afur G'ulomning ba'zi she'rlari tarixiy hodisalar, ma'lumotlar va shaxslar obrazini aks ettirish asosiga qurilgan. Bunday asarlar tarixning badiiy solnomasi, tarixiy shaxs taqdiri, umrining oxiriga qadar aniqlik kasb etadi. "Turksib yo'llarida", "Hamza xotirasi", "Insoniyat tarixining birinchi kosmonavtiga" she'rlariga shunday xususiyat xosdir. G'afur G'ulom Sharq va G'arb tarixi, falsafasi, madaniyatini

favqulodda chuqur bilgan alloma kishi edi. *Demak, xulosa qilib biz shuni ayta olishimiz mumkinki, adibimizning ijodi hayotiyligi, achchiq hayot haqiqatlarini yoritib bergenligi bilan qalbimizga juda yaqindir va ko'ngilga kirib borishi judayam tez.*

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. “Yodgor” qissasi
2. “Netay” qissasi
3. “Shum bola” qissasi